ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

GERMANIYA SIYOSATI, DAVLAT TUZUMI, PARTIYALAR VA ZAMONAVIY SIYOSIY YO'LI

Ashuraliyev Firdavs
O'DJTU Xalqaro munosabatlar talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbari **Iroda Yarmuhammedova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.20498846

ANNOTATSIYA

Germaniya Yevropaning eng nufuzli davlatlaridan biri bo'lib, uning siyosiy tizimi zamonaviy demokratiyaning muhim namunalaridan hisoblanadi. Mamlakat federal tuzilishga ega bo'lib, hokimiyatning bo'linishi, qonun ustuvorligi va fuqarolik erkinliklari asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. Germaniya siyosati nafaqat ichki boshqaruv jarayonlariga, balki Yevropa Ittifoqi va xalqaro munosabatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada Germaniyaning siyosiy tizimi, davlat boshqaruvi, siyosiy partiyalari, tashqi siyosati va zamonaviy muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar; Germaniya partiyalari, federal boshqaruv, Bundestag, Yevropa ittifoqi, Sharqiy va G'arbiy Germaniya, CDU/CSU, Afd, SPD, Yashillar va So'llar.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya siyosiy jihatdan tubdan o'zgardi. 1949-yil 23-mayda Germaniya Federativ Respublikasi tashkil etildi.[1] Asosiy Qonun demokratik boshqaruvning poydevori sifatida qabul qilindi. 1990-yilda Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashishi mamlakat tarixidagi eng muhim siyosiy voqealardan biri bo'ldi. Birlashuvdan keyin Germaniya Yevropadagi yetakchi iqtisodiy va siyosiy kuchga aylandi.Germaniya federal parlament respublikasidir. Mamlakat 16 ta federal yerga bo'lingan. Federal tizim markaziy hokimiyat bilan hududiy hokimiyat o'rtasida vakolatlarni taqsimlaydi. Bu model demokratik boshqaruvni kuchaytiradi va hududlarning manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Bundestag va Bundesrat Germaniya parlament tizimining asosiy organlaridir. Bundestag xalq tomonidan saylanadi va qonunlarni qabul qiladi. Bundesrat esa federal yerlar manfaatlarini ifodalaydi. Qonunchilik jarayonida ikki palataning ham muhim o'rni mavjud. Parlament majlislari Berlin shahridagi tarixiy Reyxstag binosida o'tkaziladi. Reyxstag bugungi kunda Germaniya demokratiyasining ramzlaridan biri hisoblanadi. Qonun loyihasi federal hukumat, Bundestag deputatlari yoki Bundesrat tomonidan kiritiladi. Loyiha Bundestag qo'mitalarida muhokama qilinib, Bundestagda bir necha o'qishda ko'rib chiqiladi va ovozga qo'yiladi. Bundesrat uni ma'qullaydi yoki e'tiroz bildiradi. Federal prezident qonunni imzolaydi. Qonun rasmiy gazetada e'lon qilingach kuchga kirishi belgilangan. Germaniyaning qonun chiqaruvchi tizimi ikki palatali parlamentga asoslangan bo'lib, Bundestag xalq manfaatlarini ifodalasa, Bundesrat federal yerlar manfaatlarini himoya qiladi.[2] Ushbu tizim demokratik boshqaruv, federalizm va hokimiyatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.Federal kansler Germaniya hukumatining rahbari bo'lib, Kansler hukumat siyosatini belgilaydi va vazirlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Federal prezident esa davlat rahbari bo'lib, asosan vakillik vazifalarini bajaradi. Germaniyaning ijro etuvchi hokimiyati parlament demokratiyasi tamoyillariga asoslangan. Federal Prezident davlatning ramziy rahbari bo'lsa, Federal Kansler amalda hukumatning boshqaruv markazi hisoblanadi. Federal Hukumat mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi, Bundestag esa uning faoliyati ustidan demokratik nazoratni ta'minlaydi. Germaniyada sud tizimi mustaqil hisoblanib, Federal Konstitutsiyaviy sud Asosiy Qonunning himoyachisi sifatida faoliyat yuritadi. U 1951-yilda tashkil etilgan bo'lib, Karlsrue (Karlsruhe) shahrida joylashgan.Sudlar fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va davlat organlari faoliyatining qonuniyligini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.Sud a'zolari

[1] Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. Berlin, 1949
Bundesrat der Bundesrepublik Deutschland. Aufgaben und Funktionen des Bundesrates. Berlin, 2024.[2]

tarkibi 16-nafar sudyadan iborat bo'lib, 2 ta senatga bo'lingan va har bir senatda 8 tadan sudya mavjud.Sudyalarning yarmi Bundestag yarmi Bundesrat tomonidan saylanadi va ularning vakolat muddati umumiy 12-yilni tashkil etib,qayta saylanmaydi.Albatta bu siyosiy tasirni kamaytirish uchun tashkil etilgan.Qolaversa, mahalliy sud tizimi[Amtsgericht],yer [landgericht],oliy sudi[Oberlandesgericht],federal oliy sud[bundesgerichtshof] kabilar mavjud. Ma'muriy sud esa davlat organlari bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqadi.

Germaniyada ko'p partiyaviy tizim hukmron bo'lib, Xristian-demokratik ittifoq, Sotsial-demokratik partiya, Yashillar partiyasi, Erkin demokratik partiya va boshqa siyosiy kuchlar mamlakat ichki va tashqi siyosatida muhim rol o'ynaydi. Koalitsion hukumatlar Germaniya siyosatining ajralmas qismidir.Aynan bir partiya Germaniyani ochiq va ko'p vektorli siyosat olib borishini maqullasa, boshqa bir partiya Yevropa ittifoqidan chiqishi, ba'zi bir Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan yaqin siyosat va munosabat o'rnatishini istamaydi. CDU/CSU birinchi navbatda xalqaro siyosatning asosiy masalalarini belgilaydi.Germaniyani BMT ,NATO va Yevropa Ittifoqi kabi tashkilotlarda nufuzini oshirishga va integratsiya tuzishga harakat qiladi. Afd[Alternative fur Deutschland] partiyasi esa Germaniyani YI va umumiy yevro valyutasidan chiqishini so'ramoqda.

SPD 1863-yilda tashkil etilgan bo'lib, nafaqat Germaniyada, balki Yevropadagi eng qadimgi ommaviy siyosiy partiyalardan biri hisoblanadi. SPDning tarixi 1863-yilda Ferdinand Lassalle tomonidan tuzilgan **Umumgerman ishchilar uyushmasi (ADAV)**ga borib taqaladi.[3] 1875-yilda bir necha ishchi harakatlari birlashib, keyinchalik SPD nomini olgan siyosiy kuchga aylandi. 1890-yildan boshlab partiya rasmiy ravishda Germaniya Sotsial-demokratik partiyasi (SPD) nomi bilan faoliyat yurita boshladi.Yevropa barqarorligi va o'sish paktini barqarorlik paktiga aylantirish va Yevropa kapital bozorini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. SPD markaz-so'l (center-left) yo'nalishdagi partiya hisoblanadi. SPD bozor iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydi, biroq davlatning ijtimoiy himoya va iqtisodiy tartibga solishdagi faol rolini ham muhim deb hisoblaydi. SPD XX asr davomida Germaniya siyosatining asosiy partiyalaridan biri bo'lib keldi.[4] Partiya ko'plab federal hukumatlar tarkibida faoliyat yuritgan.Ikkinchi jahon urushidan keyin SPD G'arbiy Germaniyada demokratiyaning tiklanishida muhim rol o'ynadi. 1969-yilda SPD vakili Villi Brandt (Willy Brandt) Germaniya kansleri etib saylangan edi va u Sharqiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan Ostpolitik siyosatini amalga oshirdi. Mashhur SPD siyosatchilari Willy Brandt (1913-1992) 1969-1974-yillarda Federal Kansler; 1971-yilda Nobel Tinchlik mukofoti laureati; Sharq va G'arb o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash siyosatini olib borgan. Yana bir mashhur vakili Gerhard Schröder1998-2005-yillarda Germaniya Kansleri; iqtisodiy islohotlar va mehnat bozori modernizatsiyasi bilan mashhur bo'lgan. 2021-yilgi Bundestag saylovlarida SPD:saylovchilarning taxminan 25,7% ovozini oldi.Bundestagdagi eng yirik fraksiyaga aylandi.Olaf Scholz Kansler etib saylandi. Shundan so'ng SPD, Yashillar partiyasi va Erkin Demokratik Partiya (FDP) bilan koalitsion hukumat tuzdi. Xalqaro siyosatdagi qarashlari shularki, Yevropa Ittifoqini va NATO a'zoligini qo'llab-quvvatlaydi, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni himoya qilishni tashqi siyosatning muhim yo'nalishi deb hisoblaydi.

FDP (Freie Demokratische Partei) Germaniyaning liberal siyosiy partiyasi bo'lib, 1948-yil 11-dekabrda tashkil etilgan. Partiya shaxsiy erkinliklar, erkin bozor iqtisodiyoti va fuqarolik huquqlarini himoya qilish tarafdori hisoblanadi.[5] FDPning asosiy siyosiy tamoyillari, liberal demokratiya, shaxs erkinligi, erkin bozor iqtisodiyoti, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliqlarni kamaytirish, davlatning iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvini cheklash, ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirish edi. FDP odatda markaz (center) va markaz-o'ng (center-right) siyosiy yo'nalishdagi partiya sifatida baholanadi. Partiya Germaniya Federativ Respublikasi tashkil topgan dastlabki yillardan boshlab siyosiy hayotda muhim rol o'ynagan. FDP ko'pincha hukumat koalitsiyalarida ishtirok etib, CDU/CSU yoki SPD bilan hamkorlik qilgan. Shuning uchun FDP ba'zan Germaniya siyosatida "kingmaker" deb ham ataladi, ya'ni hukumat tuzishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan partiyadir. Hans-Dietrich Genscher Germaniyaning eng mashhur tashqi ishlar vazirlaridan biri, Germaniya birlashuvi jarayonida muhim rol o'ynagan va yana

[3] Sozialdemokratische Partei Deutschlands (SPD). Official Party History. Berlin, 2024.
[4] SPD Parteiprogramm (Hamburger Programm), Berlin.
[5] Freie Demokratische Partei (FDP). Bundespartei. Offizielle Geschichte.

Christian Lindner FDPning zamonaviy yetakchilaridan biri. U uzoq vaqt partiya raisi bo‘lgan va moliya siyosati va iqtisodiy islohotlar tarafdori sifatida tanilgan. FDP Germaniyaning asosiy liberal partiyasi hisoblanadi. U shaxsiy erkinliklar, bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlikni rivojlantirish tarafdori bo‘lib, Germaniya siyosatida ko‘p yillar davomida muhim rol o‘ynab kelmoqda. Koalitsion hukumatlar tizimida FDP ko‘pincha muvozanatni ta'minlovchi siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Die Linke (o‘zbekcha: Chap partiya) Germaniyaning chap qanot siyosiy partiyalaridan biri hisoblanadi. Partiya 2007-yil 16-iyunda PDS (Partei des Demokratischen Sozialismus) va WASG (Arbeit & soziale Gerechtigkeit) partiyalarining birlashishi natijasida tashkil topgan.[6] Die Linke o‘zini demokratik sotsializm g‘oyalariga asoslangan partiya sifatida taqdim etadi va ushbu partiyanng asosiy g’oyalari ijtimoiy tenglik,boylikni adolatli taqsimlash,minimal ish haqini oshirish, bepul va sifatli ta’limni tashkil etish, sog’liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish, kambag’allikka qarshi kurashish kabilar belgilangan. Partiya iqtisodiyotda davlatning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi. Die Linke partiyasining ildizlari Sharqiy Germaniyaga (GDR) borib taqaladi. 1990-yilda Germaniya birlashganidan keyin Sharqiy Germaniyadagi hukmron partiya bo‘lgan SED (Sozialistische Einheitspartei Deutschlands) negizida PDS tashkil etildi. 2007-yilda PDS va WASG birlashib, bugungi Die Linke partiyasini tuzdilar. Shu sababli partiyaning asosiy elektorati uzoq vaqt Sharqiy Germaniya hududlarida joylashgan edi. Die Linke yuqori daromadli fuqarolarga ko’proq soliq solishni ,davlat investitsiyalarini ko’paytirishni, kommunal xizmatlarni davlat nazoratida saqlashni qo’llab quvvatlaydi. Die Linke Germaniya siyosatidagi eng tinchlikparvar partiyalardan biri sifatida tanilgan.Ushbu partiya harbiy mojarolarga qarshi,qurol eksportini cheklash tarafdori, xalqaro nizolarni faol diplomatik yo’l bilan hal etishni qo’llab quvvatlaydi. NATO masalasida partiya ichida turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, u an'anaviy ravishda NATO faoliyatini tanqid qilib kelgan. Gregor Gysi Die Linkening eng mashhur siyosatchilaridan biri hisoblanadi. U partiyaning Bundestagdagi faoliyatida muhim rol o‘ynagan.Qolaversa, Sahra Wagenknecht partiyaning taniqli siyosatchilaridan biri bo‘lgan. Keyinchalik U Die Linkedan chiqib, o‘zining siyosiy harakatini tashkil etgan. Die Linke Germaniyadagi yirik "xalq partiyalari" (SPD yoki CDU kabi) darajasida bo‘lmasa-da, chap qanot siyosatining muhim vakili hisoblanadi. Partiya ijtimoiy tenglik va himoya masalalarini siyosiy kun tartibiga olib chiqishda muhim ro’l o‘ynaydi. Die Linke Germaniyaning chap qanot siyosiy partiyasi bo‘lib, demokratik sotsializm, ijtimoiy adolat va davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini qo‘llab-quvvatlaydi. Partiya ayniqsa ijtimoiy himoya, daromadlar tengsizligini kamaytirish va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi..

Bündnis 90/Die Grünen (o‘zbekcha: Yashillar partiyasi) Germaniyaning eng nufuzli siyosiy partiyalaridan biri bo‘lib, ekologiya, iqlimni muhofaza qilish, inson huquqlari va barqaror rivojlanish g‘oyalarini ilgari suradi. Partiya bugungi kunda Germaniya siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.[7] Yashillar partiyasi 1980-yil 13-yanvarda G‘arbiy Germaniyada tashkil etilgan. Partiya ekologik harakatlar, tinchlik tarafdorlari, atom energiyasiga qarshi faollar va fuqarolik huquqlari himoyachilarining birlashuvi natijasida vujudga kelgan. 1990-yilda Germaniya birlashganidan so‘ng Sharqiy Germaniyada faoliyat yuritgan Bündnis 90 harakati bilan hamkorlik boshlandi. 1993-yilda ikki siyosiy kuch rasman birlashib, Bündnis 90/Die Grünen nomini oldi. Barcha partiyalar kabi yashillar partiyasi ham o’z mafkurasiga ega va bular O’zbekiston Ekologik partiyasi mafkurasi bilan chambarchas bog’liq va o’xshash hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, barqaror iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish, gender tengligi, demokratiyani rivojlantirish, fuqarolik erkinliklarini kengaytirish kabilardir. Partiya odatda markaz-chap (center-left) siyosiy kuch sifatida tavsiflanadi. Yashillar partiyasi 1983-yilda ilk bor Bundestagga saylangan.[8] 1998-2005-yillarda SPD bilan koalitsion hukumat tarkibida faoliyat yuritgan. Ushbu davrda partiyaning yetakchilaridan biri bo‘lgan Yoshka Fisher (Joschka Fischer) Germaniya tashqi ishlar vaziri va vitse-kansleri lavozimida ishlagan. So‘nggi yillarda partiya Germaniyada eng tez rivojlanayotgan siyosiy kuchlardan biriga aylandi. 2021-yilgi Bundestag saylovlarida Yashillar partiyasi taxminan 14,8 % ovoz oldi. Bundestagdagi eng yirik siyosiy kuchlardan biriga aylandi. SPD va FDP bilan koalitsion hukumat

[6] Die Linke. Parteiprogramm. Berlin.
[7] Bündnis 90/Die Grünen. Grundsatzprogramm. Berlin.
[8] Deutscher Bundestag. Fraktionen und Parteien im Bundestag. Berlin.

tuzishda ishtirok etdi.Bu natija partiya tarixidagi eng muvaffaqiyatli natijalardan biri bo'ldi. Yashillar partiyasi CDU/CSU kabi Yevropa Ittifoqini qo'llab quvvatlaydi va xalqaro hamkorlik tarafdori sanaladi.Demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi deb biladi. Iqlim diplomatiyasiga katta ahamiyat beruvchi partiyadir. Joschka Fischer 1998-2005-yillarda Germaniya tashqi ishlar vaziri lavozimida ishladi.U yashillar partiyasining tarixiy yetakchilaridan biri hisoblangan. Yana bir vakil Annalena Baerbock hampartiyaning zamonaviy yetakchilaridan biri bo'lib, Germaniya tashqi ishlar vaziri lavozimida faoliyat yuritgan. Robert Habeck ham partiyaning yetakchi siyosatchilaridan biridir. U iqtisodiyot va energetika masalalarida faol ishtirok etgan. Bündnis 90/Die Grünen Germaniyaning ekologiya, barqaror rivojlanish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan siyosiy partiyasidir. Partiya mamlakat siyosiy tizimida muhim o'rin egallab, ayniqsa iqlim siyosati va ekologik islohotlarni amalga oshirishda katta ta'sirga ega. So'nggi yillarda uning siyosiy nufuzi sezilarli darajada oshib, Germaniyaning yetakchi siyosiy kuchlaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda Germaniya Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlaridan biri sifatida xalqaro siyosatda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatning zamonaviy siyosiy yo'li demokratiyani rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, ekologik barqarorlikka erishish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Shu sababli Germaniya siyosiy tizimi va boshqaruv tajribasi zamonaviy demokratik davlat qurilishi hamda siyosiy institutlar faoliyatini o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Germaniya siyosiy hayotida CDU/CSU, SPD, FDP, Yashillar partiyasi va Die Linke kabi siyosiy partiyalar muhim o'rin egallaydi. Ko'p partiyaviylik va koalitsion hukumatlar amaliyoti mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlash, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalash hamda demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Saylov tizimining aralash modeli esa siyosiy vakillik va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Paterson, William E. The German Political System. Oxford University Press.
2. Jeffery, Charlie. The Federal Republic of Germany at Thirty. Routledge.
3. Lees, Charles. The Party Politics of Germany. Manchester University Press.
4. Padgett, Stephen. Developments in German Politics. Palgrave Macmillan.
5. Conradt, David P. The German Polity. Rowman & Littlefield Publishers.
6. Green, Simon & Paterson, William. Governance in Contemporary Germany. Cambridge University Press
7. European Union. Germany and the European Union.